

## XITOY TILIDA OMONIMIYANING TURDOSH XODISALARDAN FARQLANISHI



10.24412/2181-1784-2021-1-21-28

**Alimova Sevara Farxadovna**

TDSHU, “Xitoy filologiya”si kafedراسi o‘qituvchisi

**Аннотация.** Наличие омонимии в китайском языке, несомненно, связано с фонетической структурой этого языка. Благодаря такой структуре китайский язык имеет относительно небольшое количество идентичных мелодических сочленений, а также фонетические процессы, формирующие звуковую структуру. Считается, что в китайском языке омонимия возникла в результате различных фонетических процессов. По словам Б.Карлгрена, "фонетическое развитие китайского языка шло с древних времен до наших дней через упрощение, выравнивание и редукцию: в свое время, несмотря на односложность, он имеет богатый фонетический состав, в нем есть множество разных слогов, этот язык стал фонетически окончательно фальшивым языком в результате процессов упрощения, ассимиляции взаимно различимых фонем при длительном использовании: по мнению ученых, В течение истории развития китайского языка процесс образования омонимов происходил в результате фонетических изменений.

**Ключевые слова и фразы:** китайский язык, омонимия, омограф, омофон, диалект, тон, фонетика, графическое письмо.

**Annotation.** The presence of homonymy in the Chinese language is undoubtedly associated with the phonetic structure of this language. Due to such a structure, the Chinese language has a relatively small number of identical melodic joints, as well as phonetic processes that form the sound structure. It is estimated that in the Chinese language, homonymy arose as a result of various phonetic processes. According to B. Carlgren, "the phonetic development of the Chinese language has gone from ancient times to our present day through simplification, leveling (leveling, equalizing) and reduction: at one time, despite monosyllabism, it has a rich phonetic composition, it has a variety of different syllables this language has become a phonetically finally faked language as a result of the processes of simplification, assimilation of mutually distinguishable phonemes during long use: According to

*scientists, During the history of the development of the Chinese language, the process of the formation of homonyms occurred as a result of phonetic changes.*

**Key words and phrases:** Chinese language, homonymy, omogrof, omofon, dialect, tone, phonetics, graphic writing.

Omonimiya masalasi nafaqat tilning asosiy birligi bo‘lmish so‘zning chegaralarini belgilash bilan bog‘liq muhim nazariy masala, balki amaliy leksikografiyaning eng murakkab masalalaridan biri.

Omonimiya hodisasining tildagi ahamiyati, o‘rni va roli haqida turli nuqtai nazarlar mavjud. Ayrim tilshunoslar omonimlarning hosil bo‘lishi – bu tilning lug‘aviy tarkibini boyitish, boshqalari esa – omonimiyani tilning “halokatli yarasi” deb hisoblaydi. A. A. Reformatskiy, A. N. Gvozdev va boshqa qator tilshunoslar omonimiyani salbiy hodisa, “tushunishga to‘siqlik”, “tilning nuqsoni” sifatida ko‘rishadi. Boshqa olimlar, masalan, L. A. Bulaxovskiy, O. S. Axmanova, R. A. Budagovlar ayrim holatlarda omonimiyani nutq va matnni tushunishda qiyinchilik tug‘dirishini e‘tiborga olishsa ham, bu hodisani “g‘ayritabiiy” deb hisoblamaydilar.

Omonimiya masalasini o‘rganishda tadqiqotchilar ham ona tili materialalariga, ham xorijiy tillarga murojaat qiladi.

Omonimiya hodisasi deyarli barcha dunyo tillarida tarqalgani bois, u yoki bu tilda ushbu hodisasning tavsifidan tortib tahliliga ko‘pgina adabiyotlar mavjud. Ayniqsa, Sankt-Peterburgda mazkur masala bo‘yicha bo‘lib o‘tgan mashhur bahs-munozaralardan keyin omonimiyaga oid adabiyotlar soni keskin oshdi<sup>1</sup>.

Omonimiyaning muhim jihatlariga bag‘ishlangan ko‘pgina ishlarning bo‘lishiga qaramay, ushbu hodisa bo‘yicha yagona nuqtai nazar hanuzgacha mavjud emas. Bundan tashqari, mazkur masala bo‘yicha terminlarning qo‘llanilishida ham bir to‘xtamga kelingani yo‘q. Shuning uchun xitoyda tilida bu masalani yoritishdan avval, tadqiqotda qo‘llaniladigan terminlarni aniqlab olish lozim bo‘ladi.

Umumiy tilshunoslikda omonimiya hodisasi masalasiga asosan to‘rtta yondashuv ajratiladi va tegishli tarzda “omonim” tushunchasi bo‘yicha to‘rtta asosiy nuqtai nazar mavjud.

Birinchi nuqtai nazarga ko‘ra, omonimlar – bu bir xil fonetik shakl (ko‘rinish)dagi, biroq grafik yozilishidan qat’iy nazar, har xil ma’noga ega so‘zlar. Ushbu fikrga mahalliy va xorijiy tilshunoslarning katta guruhi qo‘shiladi, shular jumlasidan, V. V. Vinogradov, O. S. Axmanova, L. A. Bulaxovskiy, Ye. M. Galkina-Fedoruk, S. I. Kanonich, B. Trika, Sh. Balli, L. Blumfild va boshqalar.

<sup>1</sup> Дискуссии по вопросам омонимии: Лексикографический сборник. – М., 1960. – Вкл. 4. – С. 35-92

Tilshunoslar ikkinchi guruhining nuqtai nazariga ko‘ra, omonimlar bir xil talaffuz qilinib, xar xil ma’nomalarni anglatrsa ham, albatta, bitta (bir xil) yozilishga ega bo‘lishi kerak (V. V. Broun, I. V. Arnold, N. M. Shanskiy, M. X. Axtyamov).

Boshqa bir qator olimlar omonimlarni bir xil talaffuz qiladigan, lekin bir-biridan farq qiladigan ma’no va har xil yozilishga ega bo‘lgan so‘zlarga kiritadi: X. Ogata va R. Inglott.

“Omonim” terminiga oid ushbu uchta tushunchaga qarama-qarshi nuqtai nazar V. Skitning “Etimologik lug‘ati”da o‘z aksini topib, toshuvli emas, balki grafik o‘xshashlik prinspidan kelib chiqib omonimga ta’rif beradi.

Biz birinchi guruh olimlarining “omonim” termini ostida bir xil talaffuz qiladigan (bir xil tovushli) so‘zlar degan fikriga qo‘shilamiz. Demak, mazkur tadqiqotda omonimlar deganda bitta tovushli ifodalanishga, ammo turli ma’nomalarga ega so‘zlar tushuniladi.

Ma’lumki, xitoy tilshunosligida ham omonimlar tushunchasiga turli nuqtai nazarlar mavjud. Shu kunga qadar xitoy olimlari omonimiya hodisasi haqida, shuningdek, omonim terminiga aniq ta’rif berishda yagona bir fikrga kelishmadi.

Fikrlarning biriga ko‘ra, xitoy tilida omonimlar – ton (ohang) e’tiborga olinmagan holda bir xil talaffuz (tovushli ifodalanish)ga va bir-biridan farqli bo‘lgan ma’noga ega so‘zlar tushuniladi. Bu tushunchadan kelib chiqib, ton (ohang) bo‘yicha farqlanadigan so‘zlar omonimlar deb ataladi:

妈 mā –ona;

麻 má– kenaf (kanop);

马 mǎ – ot (yilqi);

骂 mà – urushmoq, so‘kinmoq;

2. 同志 tōngzhī – o‘rtoq;

通知 tōngzhī – xabar bermoq;

统制 tǒngzhì – hukmronlik qilmoq.

Biroq, bunday nuqtai nazar to‘la haqli emas, chunki A. A. Dragunov va Ye. I. Dragunovalarning ta’kidlashicha, “...so‘zning bir qismi (morfema) sifatida namoyon bo‘la oladigan u yoki bu ma’noga ega minimal fonetik birlik nutqning alohida tovushi (fonema) emas, balki ton (ohang)li bo‘g‘in – sillabema deb tushuniladi”<sup>2</sup>. Xitoy tilida ton (ohang) so‘z yoki morfemaning fonetik qobig‘i (ustki qoplami)ning

<sup>2</sup> Драгунов А.А. и Драгунова Е.И. Структура слова в китайском национальном языке // Советское востоковедение. – М., 1955. – № 1. – С. 58.

ajralmas qismi hisoblanadi va ma’no farqlovchi rolini bajaradi. Shuning uchun omonimlar deganda ham talaffuz (tovush) bo’yicha, ham ton (ohang) bo’yicha bir-biriga mos keladigan so’zlar tushuniladi (bu nuqtai nazarning tarafdorlari xitoy tilshunoslari Chjou Yaoven, Syuy Min va boshqalar)

Ma’lumki, hozirgi zamon xitoy iyeroglifik yozuvida har bir belgi – iyeroglif so’z yoki uning minimal ma’noga ega qismi – morfemani yozuvda ifodalash uchun xizmat qiladi. Shuning uchun omonimiya masalasini o’rganishda, N. I. Feldman ta’kidiga ko’ra, xitoy tilidagi so’zga, uning iyeroglifik yozuvi mavjud bo’lishga qaramay, har qanday tildagi so’zlarga kabi yondashish kerak.

Shunday qilib, xitoy tilidagi omonimlarga quyidagicha ta’rif berish mumkin: omonimlar – bir xil tovushli ohang (shu jumladan, ton ham), ammo iyeroglifik yozilishidan qat’iy nazar har xil ma’noga ega so’zlar. Masalan, bunday so’zlar jumlasiga quyidagi juftliklar kiradi:

花 huā – gul;

花 huā– sarflamoq.

2. 吉利 jīlì– baxtli, omadli;

极力 jīlì– har qancha, bor kuchi bilan.

3. 行程 xíngchéng – o’tish, yo’nalish(marshrut);

形成 xíngchéng – shakllanmoq, tahlanmoq.

Umumiy tilshunoslikda ham, xitoy tilshunosligida ham omonimiya hodisasiga ta’rif berishda “omofon” va “omograf” kabi terminlar qo’llaniladi – ular borasida ham yagona bir talqin va tushuncha mavjud emas. Ba’zida omofonlar va omograflar omonimlar turlari sifatida, ayrim holatlarda esa – omonimlar bilan turdosh bo’lgan birliklar sifatida ko’riladi.

Ayrim ishlarda omofon turlicha talqin qilingan omonim sifatida tushuniladi. Masalan, ba’zi tadqiqotlarda har xil ma’no va yozilishga ega, lekin talaffuz (tovush) bo’yicha bir xil bo’lgan so’zlar omofonlar deb nomlanadi. Aslida turlicha (bir-biridan farqlanib) yoziladigan omonimlar omofonlar deb hisoblanadi.

Masalan, bu so’zlar qatoriga rus tilidagi “лук”-“lug”, “паз”-“pas”, ingliz tilidagi “night”[nait] (tun)- “knight” [nait] (рицарь) kabilarni kiritish mumkin.

Omofonga berilgan mazkur ta’rif X. Ogat va R. Inglotlar keltirgan omonim ta’rifiga mos keladi. Biroq, boshqa bir qator ishlarda, xususan, tilshunos L.Salomon fikriga ko’ra, grafik differensial bo’lmagan omonimlar ham omofonlarga kiritiladi. Omofonga berilgan barcha bu tavsiflar so’zlar darajasiga tegishli hisoblanadi.

Shu bilan bir qatorda “omofon” terminiga yanada kengroq berilgan talqiniga ko‘ra bir xil talaffuzga ega so‘zlar har doim ham bir xil darajadagi birliklarga tegishli bo‘lmasligi mumkin. Ushbu ta’rifga muvofiq, omofoniya turli til darajalarining birliklari qamrab oladi va turli darajalarda amal qiladi. V. V. Vinogradovning yozishicha, “omofoniya omonimiyaga nisbatan ancha kengroq tushuncha. Bu tushuncha yaxlit ohanglik yoki ohangdoshlikning barcha turlarini – butun konstruksiyalar, so‘zlar yoki qismlarining bog‘lanishi, nutqning alohidagi qismlari, alohida morfemalar, hattoki turdosh tovushlar birikmalarini qamrab oladi”<sup>3</sup>. Rus tilida omofoniyaga misol sifatida quyidagi hosilalarni keltirish mumkin:

«КОСТНЫЙ» (suyakli, suyakka oid) – «КОСНЫЙ» (qotib qolgan, sun’iy); «СТРОЙКА» (qurilish) – «СТРОЙ-КА» (qur-chi); «СДАЧИ» (qaytimning) – «С ДАЧИ» dala hovlidan); «МОГ ЛИ» (u qoldirmidi) – «МОКЛИ» (ivib turdilar); «ВЛЕЗ» (kirib oldi) – «В ЛЕС» (o‘rmonga) va h.k.

Xitoy tilida omofonlar qatoriga quyidagi ohangliklarni kiritish mumkin:

1. 下场 xiàchǎng – xotima, yakun, yakunlovchi (so‘z);  
下场 xiàchǎng – sahnadan tushmoq (so‘z birikmasi).
2. 交不了 jiāobùle – ifodala olmaslik (so‘z shakli);  
教不了 jiàobùle o‘rgana olmaslik (soz shakli’).

“Omograf” terminiga kelsak, u ham tilshunoslikda turlicha talqin qilinadi. Ko‘pincha “omograf” termini ostida bir xil yoziladigan, lekin har xil talaffuz qilinadigan so‘zlar tushuniladi. Rus tilida bunday so‘zlar qatoridan quyidagi so‘zlar joy olgan: “кружки” (krujkalar)-“кружки”(doiralar, to‘garaklar);

“стрелки” (millar, ko‘rsatkichlar) – “стрелки” (merganlar, o‘t oluvchilar); “вэсти” (xabarlar, yangiliklar) – “вэсти” (olib bormoq). Xitoy tilida ushbu so‘zlarga quyidagi misollarni keltirish mumkin.

1. 乐 lè – shodlik, xursandchilik;  
乐 lè – musiqa;  
乐 lè – sevmoq, yahshi ko‘rmoq (nimanidir), lazzatlanmoq.
2. 长 cháng – uzunlik, uzun;  
长 cháng – katta (yosh bo‘yicha), boshlik, rahbar.
3. 校 xiào – solishtirmoq;  
校 xiào – maktab, bilim yurti.

<sup>3</sup> Виноградов В.В. Об омонимии и смежных явлениях // Исследование по русской грамматике. – М., 1975. – С. 297.

Mazkur nuqtai nazaridan kelib chiqib, aytish mumkinki, omografiya omonimiyaga turdosh bo‘lgan hodisa sifatida namoyon bo‘ladi. Bundan tashqari, tilshunoslikdagi nuqtai nazarlardan biriga muvofiq, omograflar omonimlar turi bo‘lib hisoblanadi: ular yozuvda ham, talaffuzda ham bir-biriga mos keladi yoki ular talaffuzda farq qilib, grafik shakl bo‘yicha bir xil bo‘ladi.

Bizningcha, omografiya – bu omonimiyaga bevosita aloqasi bo‘lmagan, lekin u bilan turdosh bo‘lgan hodisa hisoblanadi. Ushbu ikkita ma‘no bitta polisemantik so‘zning ma‘nolarimi yoki ular ikkita omonimga tegishlimi – bu anchagina murakkab savol.

Ma‘lumki, olimlar omonimlar va polisemantik so‘zlarning o‘rtasidagi farqni aniqlash uchun ko‘pgina me‘yorlarni, xususan, turli so‘z hosil qiluvchi qatorlar, paradigmalar, boshqa leksik guruhlar bilan bog‘liqlik (sinonimlar, antonimlarni saralash), sintaktik munosabatlar (distributiv usul), boshqaruvdagi farqlar (fe‘llarda) kabilarni taklif qilishadi. Ko‘pgina tilshunoslarning ta‘kidlashicha, agar semantik me‘yordan tashqari yuqoridan keltirilgan me‘yorlardan yana birini qo‘llagan holda omonimlarni aniq farqlay (chegarasini aniqlab) olish imkoni bo‘lsa, unda “aniq ifodalangan omonimiya” to‘g‘risida so‘z yuritish mumkin. Agarda omonimlar ma‘nolarini biron bir sathda aniq chegaralab olish imkoni bo‘lmasa, omonimiya “aniq ifodalanmagan” hisoblanadi.

Qator tillardagi omonimiya hodisasi tahlili shuni ko‘rsatadiki, aniq ifodalangan omonimiyani ko‘p ma‘noli so‘zdan farqlash uchun muayyan me‘yorlar mavjud. Masalan, ingliz va nemis tillarida semantik omil bilan bir qatorda omonimlarning hosil bo‘lishini ko‘rsatuvchi muhim omillardan biri so‘z yasovchi faktor hisoblanadi. Ushbu ikkita omilga ingliz tilida bir xil talaffuz qilinadigan so‘zlarning grafik ifodalash bo‘yicha differentsiatsiya me‘yori qo‘shiladi.

Olimlarning fikriga ko‘ra, rus tilidagi omonimiya va polisemiya o‘rtasidagi farqni aniqlash uchun bir vaqtning o‘zida uchta me‘yor bo‘lishi kerak: 1) semantik, 2) leksik (sinonimik qatorlar) va 3) morfologik (so‘z yasovchi). Mazkur ishda omonimiya va polisemiya dagi farqni belgilash masalasi qo‘yilmagan bo‘lsa ham, ayrim holatlarda ko‘p ma‘noli so‘zlarni tahlil qilish jarayonida polisemiya va omonimiya hodisalari o‘rtasida aniq chegarani o‘tkazish nazarda tutiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Фельдмен Н.И. “Окказиональные слова и лексикография”.- М.,2001г//Вопросы языкознания- №12.-С 67.
2. Ахманова О.С. Словарь лингвистических терминов. – М., 1966. – С. 456.

3. Дискуссия по вопросам омонимии: Лексикографический сборник.— М., 2001.— Вып. 4.— С. 35-92.
4. Драгунов А.А. и Драгунова Е.И. Структура слова в китайском национальном языке // Советское востоковедение. — М., 1955. — № 1. — С. 58.
5. Иоффе Х. О грамматической тенденции в лексикографии китайского языка // Страны и народы Востока. — М., 1971. — Вып. 11. — С. 216
6. Насирова, С. А. (2019). Языковая политика в Китае: идентификация общественно-политической терминологии. In *Китайская лингвистика и синология* (pp. 384-387).
7. ХАЛМУРЗАЕВА, Н. Т. (2014). РОЛЬ КАТЕГОРИИ ВЕЖЛИВОСТИ В РЕАЛИЗАЦИИ КОММУНИКАТИВНОЙ СТРАТЕГИИ В ДЕЛОВОМ ОБЩЕНИИ ЯПОНСКОГО ЯЗЫКА. In *Будущее науки-2014* (pp. 303-306).
8. Хаматова А.А. Омонимия в современном китайском языке.—М., Из-во Муравей. 2006г. 112стр.
9. Хашимова, С. А. (2020). ОСОБЕННОСТИ ОБРАЗОВАНИЯ НЕОДУШЕВЛЁННЫХ СУЩЕСТВИТЕЛЬНЫХ ПРИ ПОМОЩИ СУФФИКСАЦИИ В СОВРЕМЕННОМ КИТАЙСКОМ ЯЗЫКЕ. *Modern Oriental Studies*, 2(2).
10. Чжоу Цзумо. Ханьюй цихуй цзянхуа (Лекции по лексике китайского языка).—Пекин, 2002г. Лю Шу Синь. Ханьюй мяосе цыхуйсюэ (Дескриптивная лексикология китайского языка).—Пекин, 2000г.
11. Янкивер С.Б. Грамматическая омонимия в современном китайском литературном языке//Языки Китая и Юго-Восточной Азии .М.,2004г.
12. 卢志伟.北京话单音词词汇.北京 2002 年.
13. AMANOV, K. (2015). TÜRKÇE RESMİ YAZI DİLİ TARİHİNİN FASILALARA AYRILMASI. *Electronic Turkish Studies*, 10(12).
14. Hashimova, S. A., & Nasirova, S. A. (2021). FEATURES OF FORMING OF ANIMATED NOUNS WITH THE AFFIXES IN MODERN CHINESE LANGUAGE. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 1-10
15. Khalmurzaeva, N. T., Omonov, Q. S., Rikhsieva, G. S., & Mirzakhmedova, K. V. (2021). SPECIFICITY OF THE ACTION OF SILENCE IN JAPANESE COMMUNICATION CULTURE. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES* (2767-3758), 2(08), 50-55.
16. Mavlyanova U.X. Xozirgi zamon xitoy tilida omonimiya.—Т.,2020.—Б.126.
17. Mirzakhmedova, K., Nishanbaeva, A., Nuriddinov, N., & Djafarov, B. (2021). THE TERMS FORMATTED WITH ARABIC LOANWORDS IN THE

---

PERSIAN LANGUAGE. In *ИННОВАЦИОННЫЕ ПОДХОДЫ В  
СОВРЕМЕННОЙ НАУКЕ* (pp. 201-206).

18. Nasirova, S. A., Hashimova, S. A., & Rikhsieva, G. S. (2021). THE INFLUENCE OF THE POLITICAL SYSTEM OF CHINA ON THE FORMATION OF SOCIAL AND POLITICAL TERMINOLOGY. *Journal of Central Asian Social Studies*, 2(04), 10-17.